XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-avgust VI-98-79-10-213-K/24 Nurafshon shahri

Nurafshon shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 886-сонли Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10352-sonli xatini hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, shahar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari **72 975 000,0 ming.so‘m** va xarajatlari **123 876 224,0 ming.so‘m** prognoz qilinganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlash uchun qabul qilinsin.

4. Shahar byudjetidan 2024-yilgi byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun shahar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha shahar mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda shahar bo‘yicha g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun shahar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlash uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan shahar mahalliy ybudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari **1 098 583,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Shahar byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armasi tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlardan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘ chiqarilib qolgan mablag‘larning kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Shahar byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2024-yil uchun shahar mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **606 964,0 ming.so‘m** 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shaharda ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 7-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno);

yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq norudalardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda shahar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

yuridik shahslarni mol-mulkiga solinadigan soliq

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i.

aylanmadan olinadigan soliq;

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq shahar mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 10 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 10 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda shahar byudjeti o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar mahalliy byudjetiga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

12. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi shaharda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun shahar fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun shahar byudjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

13. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Eshbayev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Xolmurodov), Davlat soliq inspeksiyasi (I.Xikmatillaev) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Shahar davlat soliq inpeksiyasi (I.Xikmatillaev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab,

ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Majburiy ijro byurosi shahar bo‘limi (F.Bekmurodov) shahar davlat soliq inpeksiyasi (I.Xikmatillaev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Shermatov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Shahar ichki ishlar bo‘limi (M.Sottiyev), shahar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (I.Umarov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

18. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Shahar hokimligi:

shahar mahalliy byudjetini jami xarajatlarining 10 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

20. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Eshbayev), xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati, shahar hokimligi, tegishli tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Shahar hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22. Shahar hokimligi matbuot xizmati:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.Nurafshon.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror ijrosi shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Eshbayev) zimmasiga yuklatilsin.

25. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (A.Mavliyanov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi  KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shahar budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**72 975 000,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 023 600,0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	3 791 600,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	35 344 800,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 435 000,0
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 805 500,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 060 500,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 264 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 928 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 276 000,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 814 000,0
12	Davlat bojlari	0,0
13	Jarimalar	0,0
14	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0,0
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	232 000,0
16	Yig‘imlar	0,0
17	Xususiylashtirish	0,0
18	Boshqalar	0,0

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar miqdori, Jami	**123 876 274,0**
1.	**Shahar Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi (MTT)**	**4 926 399,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 926 399,0
2.	**Shahar Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi (XTB, BABM, Musika maktabi, maktablar)**	**7 568 753,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 568 753,0
4.	**Shahar Sog‘liqni saqlash bo‘limi**	**60 963 853,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	60 963 853,0
6.	**Shahar Madaniyat bo‘limi**	**628 437,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	628 437,0
7.	**Shahar Sport bo‘limi**	**4 222 782,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 222 782,0
8.	**Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi**	**10 225 333,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 225 333,0
9.	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**18 400,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 400,0
10.	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**125 034,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	125 034,0
11.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**456 933,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	456 933,0

12.	**Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari**	**4 000 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 000 000,0
13.	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**632 919,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	632 919,0
14.	**Davlat boshqaruv idoralari**	**16 089 506,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 089 506,0
15.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 098 583,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 089 583,0
16.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**12 919 342,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 919 342,0

Xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Nurafshon shahar**	10	10	50	50	50	40	100	100

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Shahar budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
11	Nurafshon shahar	72 975 000,0	123 876 274,0
	JAMI	**72 975 000,0**	**123 876 274,0**

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Shahar budjetiga 2024-yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Ajratiladigan mablag‘	Shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan o‘tkazib beriladigan daromadlar
1	Nurafshon shahar	50 901 274,0	9 445 435,0
	JAMI	**50 901 274,0**	**9 445 435,0**

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Shahar budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Nurafshon shahar	606 964,0
JAMI		**606 964,0**

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun			Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Toshkent viloyati Koeffitsienti	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (so‘mda)
	Nurafshon shahri	**37 000,0**	**1.32**	**48 840,0**	**1.20**	**399,60**
1	Birlik MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
2	Bobur MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
3	Degantepa MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
4	Dexkonobod MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
5	Yoshlik MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
6	Kumarik MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
7	Ma‘rifat MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
8	Mukumiy MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
9	Navruz MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
10	Nurafshon MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
11	Obod MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
12	Obod turmush MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
13	Oybek MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
14	Oppoq MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
15	Taraqqiyot MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
16	Tuy tepa MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
17	Uchkun MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
18	Xurriyat MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
19	Chig‘irik MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
20	Evalak MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
21	Yuksalish MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60
22	Yangibod MFY	37 000,0	1,32	48 840,0	1,20	399,60

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-98-79-10-213-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Koeffitsient (mutloq miqdor)**
1	Nurafshon shahari	1,10